

O'ZBEK QO'G'IRCHOQBOZLIK TOMOSHALARIDA MILLIY DAMLI VA ZARBLI CHOLG'ULARINI TUTGAN O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14163553>

Qurbonova Feruza Xayrullayevna

*O'zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti
Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor.*

Annatatsiya

Mazkur maqolada O'zbek qo'g'irchoqbozlik tomoshalarida milliy damli va zarbli cholg'ularini tutgan o'rni, kelib chiqishi va uning ahamiyati nazariy va amaliy asoslari to'g'risida so'z yuritilgan. Soha namoyondalarining ilmiy-nazariy, amaliy-ijodiy hamda tadqiqot ishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar

O'zbek qo'g'irchoqbozlik, tomosha, damli va zarbli cholg'ular, teatr, qo'g'irchoq, ilm, san'at, ijod, jarayon, sahna, aktyor.

O'zbek qo'g'irchoq teatrining tarixi uzoq o'tmishda shakllanishni boshlagan va u qadimiy teatr, an'anaviy qiziqchi va masxarabozlarning tamosha san'ati bilan uyg'unlashib zamonlar osha professional teatr darajasiga ko'tarilgan. Hozirgi kunda faoliyat ko'rsatib kelayotgan teatr janrining ichida yosh va jaji tomoshabinning eng sevimli maskanlaridandir.

Tarixiy manba'lar, san'atshunos va teatrshunos ilmiy tadqiqotlarida qo'g'irchoqbozlik va qo'g'irchoq teatrlari san'ati Turkiston xududida juda qadimdan mavjud bo'lib, xalq madaniy hayotining bir ko'rinishi sifatida ijtimoiy hayotini ifoda etuvchi ko'zgu sifatida asrlar davomida yashab, o'z rivojlanish davrini boshidan o'tkazib kelgan.

Mo'jaz qo'g'irchoq teatrlari o'z tomoshalarini odatda xalq ertaklari va afsonalari, og'zaki dramalari asosida amalga oshirganlar. Bu xalq og'zaki ijodlarning sonini adog'i yo'q darajada ko'p bo'lib, o'sha ijrochilarning o'zlari tomonidan yaratilgan.

Hozirgi kundagi qo'g'irchoq teatri san'ati bir paytlari oddiy ko'cha tomoshasi bo'lgani, u hozirgidek faqatgina bolalarga emas, balki kattalar uchun ham tomoshalar ko'rsatgani ma'lum. O'zbek romanchilik asoschisi Abdulla Qodiriyning mashhur "O'tkan kunlar" asari asosida ishlangan badiiy filmda Otabekning bozorda qo'g'irchoqbozlar tomoshasiga duch kelib qolishi va bu tomoshani asosan

qora xalq uchun namoish etilayotgani yoritilgan bo'lib uni qiziqchi, masxaraboz va dorbozlar bilan bog'liq chiqishlari ko'rsatiladi.

Milliy o'zbek cholg'ularining xalq ijodiyotida tutgan o'rni beqiyosdir. Tamoshalarning namoishi oldidan xalq milliy cholg'ulari sadolari ostida tomoshabinlar chorlanganlar, shuningdek, mo'jazgina spektakllar ko'rinishi boshlanishi va davomida milliy damli va zarbli cholg'ular jo'rligidagi tomoshalar namoishi turli yoshdagi yig'ilgan katta jamoaga taqdim etilgan.

"Qo'g'irchoq teatri O'zbekistonda ham qadim zamonlardan rivoj topib kelgan. Bizda "Qo'g'irchoq o'yin" deb yurutiluvchi bu san'atning, xususan qo'lda kiyib o'ynatiladigan, ip bilan boshqariladigan va soyasi tushiriladigan turlari o'tmishdan keng tarqalgan. Ular "Chodir jamol", "Chodir hayol", "Fonus hayol" deb atalgan." 1 Bu tomoshalarni, asosan, ikki kishi - qo'g'irchoqboz va korfarmon¹ boshqargan. Korfarmon qo'g'irchoqbozlarni gapga solgan, tomoshani boshlagan, shuningdek, sozandalik vazifasini ham bajargan. Qo'g'irchoqbozlar ayni vaqtda musiqadan yaxshi xabardor bo'lganlar, undan badiiy bezak sifatida va qahramonlar holatini ifodalovchi vosita sifatida ham foydalanilgan. Qo'g'irchoqboz sozandalar qo'g'irchoq o'yinlar uchun maxsus "Ufar", "Miyonxona", "Charx", "Duvacha parron" kabi bir qancha ajoyib xalq kuylardan foydalanganliklari va o'zlari ham tomoshalar uchun kuylar bastalaganlari haqida ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan

"Qo'g'irchoq teatri ham drama, musiqali drama, opera, balet singari ko'pgina ichki shakllarga ega bo'lgan katta san'at" 1. Darhaqiqat qo'g'irchoq teatrining boshqa teatr turlariga o'xshamas jihatlari, boz ustiga ustunlik tomonlari bor. Qo'g'irchoq teatri aktyori tomoshabin bilan muloqat asosiy uslubi bo'lgan qo'g'irchoq vositaligi orqali yetkazadi, joiz bo'lsa unga jon bag'ishlaydi. Tomoshalarda qahramonlarini o'z xarakteri, o'z qiyofasiga ega etib jonlantirishi, xamda hamma tipdagi qo'g'irchoqlarni boshqarishi bilan birga raqsga tushib, qo'shiq ayta olishi, shuningdek, musiqa asboblarida ijro eta olishi, har xil xayvonlar ovozlarini va tabbiyatda uchraydigan turli tovushlarni o'xshata olishi talab etildi.

Tomoshani boshqaruvchisi, soz bilan jo'r bo'luvchi va ayni chog'da dialogda muhim rol o'ynovchi korfarmon surnayda maqom tushirmalaridan birini chalib to'xtaydi va qiroat bilan o'qib, tomoshaga muqaddima yasaydi. Surnayda "ufor"lardan biri chalinadi. 1


Qo'g'irchoqbozlar chiqishlari, umuman qo'g'irchoq tomoshalari asosan surnay, nog'ora, doira, ayrim xollarda nay musiqa asboblaridan tashkil topgan milliy cholg'u ansambli jo'rligida tomoshabinlarga taqdim etilar edi. Truppa tarkibidagi milliy cholg'u ansambli tarkibi musiqani davomiligini ta'minlash maqsadida va tomosha davomida surnaychidan ko'p jismoniy kuch talab etilishi

sababli odatda qo'sh surnaylardan tashkil topgan bo'lgan. Shuningdek, tomosha davomida sokin va mayin kuylarga ehtiyojdan kelib chiqib nay cholg'usidan foydalanilgan. Katta maydonlarda: sayil maydonlari, bozorlarda aholini xabarlab tomoshabinlarni chorlash, tantanovorlik ruhini va bayram kayfiyati yanada musiqiy ifodalash maqsadida karnay cholg'usidan foydalanganlar.

Hozirgi globallashuv davrida fan va texnikani ildamlab tez suratlarda rivojlanayotgan vaqtda, ayniqsa OAV va internetdan "ommaviy madaniyat"ni ijobiy xamda salbiy ta'sirini e'tiborga olgan xolda yosh avlodni e'tiborini qozonish oson ishlardan emasligi oydek ravshandir. Zamonaviy qo'g'irchoq teatrining mustaqil yurtimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodni qalblarini mehr va muhabbatga to'ldirish, vatanga sadoqatli, ma'nan barkamol va har tomonlama yetuk inson bo'lib yetishishlarida uning o'rnini katta ekanligini ta'kidlab o'tish lozimdir.

Bu teatr turining o'z tomoshabini, o'z auditoriyasi bor. Shu sababli ham qo'g'irchoq teatri ijodkorlaridan o'ziga xos yangiliklar kutib qolinadi. Hozirgi bizga tanish va ma'lum qo'g'irchoq teatri san'ati bir paytlari oddiy xalq teatri bo'lgani, u hozirgidek faqatgina bolalarga emas, balki kattalar uchun ham ishlaganini ko'pchilik teatr muxlislari juda yaxshi biladilar. Keyinchalik negadir kattalar bu teatr turiga yengil munosabatda bo'lib, gohida mensimay xuddi bolalar tomoshasiga qaraganday fikrga ega bo'la boshladilar. Shuning natijasidami yoki kattalarga xos va mos spektakllar qo'yilmayotgani sababli bugun kattalar batamom qo'g'irchoq teatridan uzoqlashib ulgurishdi. Shu sababli ham soha ijodkorlaridan o'ziga xos yangiliklar kutib qolamiz va o'z o'rnida bu qo'g'irchoq teatri tomoshalarida o'zbek xalq cholg'ularimizning ishtiroqi milliy qadriyatimizga bo'lgan ehtiromimizning ifodasidir.

O'zbek klassik musiqasini dorug'ini butun dunyo biladi, bu ko'hna musiqa san'atiga qiziqish katta. Xalqaro miqiyosda musiqachilarimiz, san'atkorlarimiz, musiqashunoslarimiz va badiiy jamoalarimiz o'z chiqishlari bilan musiqa san'atimiz bayrog'ini har doimgidek baland ko'tarib kelmoqdalar. Lekin, qo'g'irchoq tomoshalari va musiqa yoki musiqaning undagi tutgan o'rnini va mohiyati juda kam o'rganilgan soha bo'lib qolmoqda. Musiqa va xalq ijodiyotida yaxlit ko'rinishda bo'lgan qo'g'irchoqbozlik sohasini san'atshunos va musiqashunos, teatrshunos olimlarimiz birgalikda o'z ilmiy izlanishlarida tadqiqotlar olib borishlari va bu yo'nalishdagi tarix qorong'uliklarini yoritishda faol ishlar olib borishlariga tilakdosh bo'lib qolamiz.





Самарқандлик қўғирчоқбозлар. Уртада машҳур
ушазода қўғирчоқбоз Қўлибобо Новвотов. 1965 йил.



«Чодир жамол» театри труппаси. 1922 йил.



XX аср бошидаги қўғирчоқ театри труппаси.

Suratlar Muxsin Qodirovning “Xalq qo‘g‘irchoq teatri” – T.1972 kitobidan olingan.